



## BANK FAOLIYATIDA IQLIM RISKLARI VA ESG-RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

### THEORETICAL FOUNDATIONS OF CLIMATE RISK AND ESG RISK MANAGEMENT IN BANKING ACTIVITIES

<sup>1</sup>Axmadjonova Gulmira  
Xabibulla qizi

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti  
ORCID: 0009-0004-3225-5312, G-mail: [g.akhmadjonova@gmail.com](mailto:g.akhmadjonova@gmail.com)

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarishning nazariy asoslari o'rganilgan. Tadqiqotda iqlim bilan bog'liq jismoniy va o'tish risklarining bank kredit portfeli va moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, ESG omillarining bank risk-menejment tizimiga integratsiyalashuvi hamda risklarni kamaytirishdagi roli asoslab berildi. Natijada banklarda iqlim va ESG-risklarni boshqarishning kompleks yondashuvini takomillashtirish zarurligi xulosa qilindi.

*Eng.* - This article examines the theoretical foundations of climate and ESG risk management in banking activities. The study analyzes the impact of physical and transition climate risks on bank credit portfolios and financial stability. It also substantiates the role of ESG factors in the banking risk management system and their contribution to risk mitigation. The findings highlight the need to improve an integrated approach to managing climate and ESG risks in banks.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *iqlim risklari, ESG-risklar, bank faoliyati, risk-menejment, moliyaviy barqarorlik, yashil moliya, kredit portfeli.*  
❖ *climate risks, ESG risks, banking activities, risk management, financial stability, green finance, credit portfolio.*

#### Kirish.

So'nggi yillarda global moliyaviy tizimda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklar va ESG (Environmental, Social, Governance) omillari bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar sifatida shakllanmoqda. Xususan, xalqaro baholashlarga ko'ra, iqlim bilan bog'liq tabiiy ofatlar natijasida global iqtisodiyotda yillik zararlar hajmi o'rtacha 200-300 mlrd. AQSh dollarini tashkil etmoqda [1]. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari ma'lumotlariga ko'ra, iqlim risklari banklar kredit portfelinin 10-15 foizgacha qismiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa

moliyaviy barqarorlik uchun sezilarli xavf hisoblanadi [2].

Mazkur sharoitda ESG omillarining moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiyalashuvi banklarning risklarni boshqarish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Rivojlangan davlatlar amaliyotida iqlim risklarini baholash, ESG-score tizimlari va stress-test mexanizmlarini joriy etish banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ham bank tizimini barqaror rivojlantirish va moliyaviy risklarni

kamaytirish doirasida ESG tamoyillarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat bank tizimining umumiy kredit portfeli 604 trln. so'mdan oshgani qayd etilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich bank sektorining real iqtisodiyotga ta'sir darajasini va iqlim risklarining potensial miqyosini belgilab beradi [3]. Shu bilan birga, kredit portfeli tarkibida energetika, sanoat va infratuzilmaviy loyihalarga yo'naltirilgan moliyalashtirish ulushining ortishi iqlim risklarini boshqarish masalalarining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda iqlim risklarini aniqlash, ularni baholash va bank faoliyatiga integratsiya qilishning nazariy hamda metodologik asoslari hali yetarli darajada shakllanmagan. ESG-risklarni boshqarish bo'yicha yagona yondashuv va baholash mezonlarining yetishmasligi bank tizimida ushbu risklarni samarali boshqarish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Mazkur sharoitda bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarishning nazariy asoslarini o'rganish, ularning iqtisodiy mazmunini aniqlash hamda bank risk-menejment tizimidagi o'rnini baholash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarish masalalari so'nggi yillarda xalqaro ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xususan, Network for Greening the Financial System hisobotlarida iqlim risklarini moliyaviy barqarorlikka tizimli tahdid sifatida baholab, banklar faoliyatida iqlim stress-testlarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan [4].

Task Force on Climate-related Financial Disclosures tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda esa banklar uchun iqlim risklarini aniqlash, baholash va oshkor qilishning yagona metodologik asoslari taklif etilgan bo'lib, ESG-risklarni boshqarish tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekani qayd etilgan [5].

World Bank tadqiqotlarida ESG omillarini bank kreditlash jarayoniga integratsiya qilish moliyaviy risklarni kamaytirish va kredit portfelining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilishi asoslangan [6].

European Central Bank tahlillariga ko'ra, iqlim risklarini hisobga olmagan holda qabul qilingan kredit qarorlari uzoq muddatli istiqbolda bank aktivlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [7].

Shuningdek, International Finance Corporation hisobotlarida ESG tamoyillarini bank amaliyotiga joriy etish orqali investitsion samaradorlik oshishi va risklar diversifikatsiyasi ta'minlanishi qayd etilgan [8].

Ilmiy adabiyotlarda, jumladan, J. Sachs, N. Stern va boshqa tadqiqotchilar ishlarida iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq iqtisodiy risklar moliyaviy tizim barqarorligiga uzoq muddatli tahdid sifatida baholangan [9].

Mahalliy tadqiqotlarda esa O'zbekiston bank tizimida ESG tamoyillarini joriy etish jarayonlari endigina shakllanayotgan bo'lib, iqlim risklarini baholash va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ta'kidlanadi [10].

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotda bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarishning moliyaviy barqarorlikka ta'siri statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari asosida o'rganildi. Statistik tahlil doirasida bank kredit portfeli tarkibi, yuqori riskli tarmoqlarga yo'naltirilgan moliyalashtirish hamda ESG omillar bilan bog'liq ko'rsatkichlar dinamikasi tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar asosida iqlim risklari va bank faoliyati natijalari o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Qiyosiy tahlil orqali rivojlangan davlatlar bank amaliyotida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarish tajribasi o'rganildi, tizimli yondashuv asosida esa mazkur risklarning bank risk-menejment tizimidagi o'rne kompleks baholandi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarish masalalari so'nggi yillarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklar bank kredit portfeli sifatiga, aktivlar barqarorligiga hamda uzoq muddatli moliyaviy natijalarga bevosita

ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli banklarda risklarni aniqlash, tasniflash va baholash tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur jarayonni tizimli baholash maqsadida bank faoliyatida iqlim risklarining asosiy turlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Bank faoliyatida iqlim risklarining asosiy turlari va ularning ta'siri\***

Risk turi	Tavsifi	Bank faoliyatiga ta'siri
<b>Jismoniy risklar</b>	Tabiiy ofatlar (sel, qurg'oqchilik, issiqlik to'liqlari)	Kredit portfeli sifati pasayadi, qarzdorlar to'lov qobiliyati yomonlashadi
<b>O'tish risklari</b>	Past uglerodli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq siyosiy va texnologik o'zgarishlar	Aktivlar qadrsizlanadi, yuqori uglerodli loyihalar riskli bo'lib qoladi
<b>Huquqiy risklar</b>	Ekologik talablarning kuchayishi va normativ cheklovlar	Kreditlash shartlari qat'iyilashadi, jarimalar ehtimoli ortadi
<b>Reputatsion risklar</b>	ESG talablariga rioya qilinmasligi	Mijozlar va investorlar ishonchi pasayadi

\*Network for Greening the Financial System va European Central Bank - materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, iqlim risklari bank faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlariga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jismoniy risklar kredit portfeli sifatiga bevosita ta'sir etsa, o'tish risklari aktivlar qiymatining kamayishiga olib keladi. Bu esa banklarda risklarni baholash tizimiga iqlim omillarini integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ESG-risklarni boshqarish bank risk-menejment tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Banklar tomonidan ESG tamoyillarini joriy etish risklarni kamaytirish bilan bir qatorda investitsion samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. ESG-risklarni tizimli baholash uchun quyidagi asosiy ko'rsatkichlar muhim hisoblanadi.

**2-jadval**

**Banklarda ESG-risklarni baholash ko'rsatkichlari va ularning mazmuni\***

Ko'rsatkich	Mazmuni	Bank faoliyatidagi ahamiyati
<b>Environmental (E)</b>	Atrof-muhitga ta'sir (CO <sub>2</sub> chiqindilar, energiya samaradorligi)	Ekologik risklarni kamaytiradi, yashil kreditlashni rag'batlantiradi
<b>Social (S)</b>	Ijtimoiy omillar (mehnat sharoiti, mijozlar bilan ishlash)	Mijozlar ishonchini oshiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi
<b>Governance (G)</b>	Korporativ boshqaruv sifati	Risklarni boshqarish samaradorligini oshiradi

\*World Bank va International Finance Corporation - materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ESG komponentlari bank faoliyatida risklarni baholashning kompleks tizimini shakllantiradi. Xususan, ekologik omillar kreditlash jarayonida loyihalarning barqarorligini aniqlashga xizmat qilsa, ijtimoiy va boshqaruv


omillari bank faoliyatining umumiy ishonchliligini oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqlim risklari va ESG-risklarni bank faoliyatiga integratsiya qilish nafaqat risklarni kamaytiradi, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, banklarda ESG

asosidagi risk-menejment tizimini joriy etish strategik ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy tizimning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xususan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jismoniy va o'tish

risklari bank kredit portfeli sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, mazkur risklarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonlarini yagona tizimga keltirish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonni kompleks aks ettirish maqsadida quyidagi integratsiyalashgan risk boshqaruv modeli taklif etiladi.



1-rasm. Bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarish modeli<sup>1</sup>

Mazkur modeldan ko'rinib turibdiki, iqlim risklari bank faoliyatiga bevosita emas, balki ESG omillari orqali bosqichma-bosqich integratsiyalashadi. Dastlab risklar aniqlanib, ESG asosida baholanadi, so'ngra ular bank risk-menejment tizimiga kiritiladi. Ushbu tizim

orqali kredit siyosati va investitsion qarorlar qayta ko'rib chiqiladi. Natijada risk darajasi pasayadi va bankning moliyaviy barqarorligi oshadi.

Shuningdek, mazkur yondashuv banklarga nafaqat risklarni kamaytirish, balki

<sup>1</sup>Xalqaro amaliyot (NGFS, World Bank) asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi. Shu jihatdan, ESG-risklarni boshqarish modeli bank tizimining strategik rivojlanish instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq jismoniy va o'tish risklari bank kredit portfeli sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uzoq muddatli moliyaviy natijalarga sezilarli ta'sir etadi. Shu bilan birga, ESG omillarining bank faoliyatiga integratsiyalashuvi risklarni kamaytirish, investitsion samaradorlikni oshirish hamda kreditlash jarayonida qarorlar sifatini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda iqlim risklarini boshqarish tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ESG-risklarni baholash va monitoring qilishning yagona metodologik yondashuvi yetarli darajada rivojlanmagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Munich Re. *Natural disaster losses in 2023*. – Munich: Munich Re, 2024. – URL: <https://www.munichre.com>
2. Bank for International Settlements. *Climate-related financial risks: a survey on current initiatives*. – Basel: BIS, 2021. – 45 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Yillik hisobot – 2025 (2024-yil yakunlari bo'yicha)*. – Toshkent: O'zR MB, 2025. – 180 b. – URL: <https://cbu.uz/upload/medialibrary/Annual-Report-2025.pdf>
4. Network for Greening the Financial System. *Guide to climate scenario analysis for central banks and supervisors*. – Paris: NGFS, 2020. – 60 p.
5. Task Force on Climate-related Financial Disclosures. *Recommendations of the TCFD*. – London: TCFD, 2017. – 74 p.
6. World Bank. *Incorporating ESG factors into banking supervision*. – Washington, DC: World Bank, 2021. – 50 p.
7. European Central Bank. *Guide on climate-related and environmental risks*. – Frankfurt: ECB, 2020. – 80 p.
8. International Finance Corporation. *ESG integration in financial institutions*. – Washington, DC: IFC, 2021. – 65 p.
9. Sachs J.D. *The Age of Sustainable Development*. – New York: Columbia University, 2015. – 543 p.
10. Stern N. *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 692 p.

Natijada bank tizimida risklarni kompleks baholash imkoniyatlari cheklangan bo'lib, bu moliyaviy barqarorlikka potensial xavf tug'diradi. Shu nuqtai nazardan, bank faoliyatida iqlim va ESG-risklarni boshqarishni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida tijorat banklarida ESG-risklarni baholashning yagona metodologiyasini joriy etish, iqlim risklari bo'yicha stress-test mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish hamda kreditlash jarayoniga ekologik va ijtimoiy mezonlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, bank xodimlarining ESG va iqlim risklari bo'yicha malakasini oshirish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali ilg'or tajribani milliy amaliyotga joriy etish zarur.

Umuman olganda, bank faoliyatida iqlim risklari va ESG-risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish nafaqat risklarni kamaytirishga, balki banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.